



Methodological characteristics of integrated lessons in primary education

Laylo AKHMEDOVA¹

Profi University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2025

Received in revised form

15 July 2025

Accepted 15 July 2025

Available online

25 August 2025

Keywords:

integrated education,
primary education,
interdisciplinary
connections,
didactic approach,
environmental awareness,
pedagogical innovations.

ABSTRACT

The article examines the significance of integrated learning at the primary education level on a scientific basis. It has been determined that the concept of integration manifests itself in the harmonious interplay of educational content, methods, and means. The development of students' cognitive and emotional-volitional potential through interdisciplinary connections, ecological and humanistic approaches is identified as a crucial direction. Furthermore, using the subject "The World Around Us" as an example, its role in fostering ecological awareness and moral-aesthetic values is analyzed. Pedagogical objectives have been established based on a system of methodological and didactic approaches to enhance the effectiveness of integrated education. It has been revealed that integrative lessons play a vital role in stimulating students' thinking, ensuring interdisciplinary continuity, and developing knowledge related to real-life situations.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4-pp36-42>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich ta'limda integratsiyalashgan darslarning metodik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

integratsiyalashgan ta'lim,
boshlang'ich ta'lim,
fanlararo bog'liqlik,
didaktik yondashuv,
ekologik ong,
pedagogik innovatsiyalar.

Maqolada integratsiyalashgan ta'limning boshlang'ich ta'lim bosqichidagi ahamiyati ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Integratsiya konsepsiyasi ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarining o'zaro uyg'unligida namoyon bo'lishi aniqlangan. Fanlararo bog'liqlik, ekologik va insonparvar yondashuvlar orqali o'quvchilarning kognitiv va hissiy-irodaviy salohiyatini rivojlantirish dolzarb yo'nalish sifatida baholangan.

¹ PhD, Acting Associate Professor, Profi University, Tashkent, Uzbekistan. E-mail: laylosaidova93@gmail.com

Shuningdek, "Atrofimizdagi olam" fani misolida ekologik ong va axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Integratsiyalashgan ta'lim samaradorligini oshirish uchun metodik va didaktik yondashuvlar tizimi asosida pedagogik vazifalar belgilangan. Ma'lum bo'lishicha, integrativ darslar o'quvchilar tafakkurini faollashtirish, fanlararo uzviylikni ta'minlash hamda real hayot bilan bog'liq bilimlarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Методические особенности интегрированных уроков в начальном образовании

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интегрированное обучение, начальное образование, межпредметные связи, дидактический подход, экологическое сознание, педагогические инновации.

В статье на научной основе рассматривается значимость интегрированного обучения на этапе начального образования. Выявлено, что концепция интеграции проявляется во взаимной гармонии содержания, методов и средств обучения. Развитие когнитивного и эмоционально-волевого потенциала учащихся посредством межпредметных связей, экологического и гуманистического подходов оценивается как актуальное направление. Также на примере предмета «Окружающий нас мир» проанализирована его роль в формировании экологического сознания и нравственно-эстетических ценностей. Для повышения эффективности интегрированного образования определены педагогические задачи на основе системы методических и дидактических подходов. Установлено, что интегративные уроки играют важную роль в активизации мышления учащихся, обеспечении межпредметной преемственности и формировании знаний, связанных с реальной жизнью.

XX asrning oxirlariga kelib, ta'lim tizimi rivojlanishining asosiy uch yo'nalishi – integratsiyalash, ekologiyalashtirish va insonparvarlashtirish kabi konseptual yo'nalishlar shakllandi hamda izchil ishlab chiqila boshlandi. Bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash va metodologik jihatdan takomillashtirish jarayonida ayniqsa bilimlarning integratsiyalashuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Integratsiya jarayoni nafaqat ta'limning mazmuniy jihatlarini, balki didaktik va metodik tashkil etilish tamoyillarini ham qamrab olmoqda. Hozirgi davr pedagogik yondashuvlarida maktab fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalar, shuningdek, kasb-hunar ta'limida umumta'lim va maxsus fanlar o'rtasidagi bog'liqliklar tizimli o'rganilib, ularning amaliyotga joriy etilishi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, tabiatshunoslik va jamiyatshunoslik fanlarining integratsiyalashuvi nazariy jihatdan asoslanmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida integrativ yondashuvning o'ziga xos didaktik xususiyatlari chuqur tahlil qilinmoqda [3].

Boshlang'ich maktabdagi ta'lim jarayoni butun ta'lim tizimining poydevori sifatida alohida o'rin tutadi. O'rta va yuqori bosqichlardagi o'quv-tarbiya samaradorligi aynan shu bosqichda yaratilgan asosning puxtaligiga bevosita bog'liqdir. Boshlang'ich maktabning rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi asosida tashkil etilishi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy, hissiy va irodaviy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda [1].

Mazkur bosqichda integrativ yondashuvga asoslangan ta'lim mazmuni, metodlari va vositalari nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ta'sirchanlik jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijobiy hissiy muhitning shakllanishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun integratsiyalashgan ta'lim jarayoni faqatgina aqliy rivojlanishni emas, balki hissiy-irodaviy tarbiyani ham muvozanatli tarzda ta'minlashi zarur.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida asosiy vazifalardan biri – inson va uni qurshab turgan muhit o'rtasidagi axloqiy-estetik aloqalarni anglash orqali shaxsda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli, qadriyatli yondashuvni shakllantirishdan iborat. Insonni yangicha tafakkur va ko'p qirrali dunyoqarash asosida tarbiyalash, uni tinchliksevar, ekologik madaniyatga ega bo'lgan, tabiat bilan uyg'un yashashga tayyor shaxs sifatida shakllantirish bugungi kun ta'limi oldida turgan dolzarb maqsadlardandir [4].

Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida “inson – tabiat hukmdori” degan biryoqlama qarashlardan voz kechib, o'quvchilarning ongiga “tabiat bilan uyg'unlikda yashash”, “tabiatni asrash – kelajak avlodga hurmat” kabi hayotiy tamoyillarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, “Atrofimizdagi olam” o'quv sohasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong va axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vositaga aylangan.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni boshlab berildi. Ana shu hujjatlar ijrosi doirasida 1998-yilda boshlang'ich ta'lim davlat standartiga “Atrofimizdagi olam” ta'lim sohasi kiritildi, bu esa o'zida tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlar uyg'unligini mujassamlashtirdi. Mazkur o'zgarish amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda integrativ yondashuvni nazariy jihatdan anglash, ta'lim mazmunini bir butun tizim sifatida ko'rish, integratsiyaning maqsad va vazifalarini chuqur tahlil qilish hamda hozirgi bosqichda pedagogik integratsiyani samarali amalga oshirish mexanizmlarini tushunish zaruratini vujudga keltirdi [1].

Davlat ta'lim standarti (DATN) asosida ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tizimli-faoliyatli yondashuvni asosiy metodologik yo'nalish sifatida belgilash ta'limning yangi paradigmasini shakllantirdi. Aynan o'qitishning faoliyatga yo'naltirilgan tabiati – DATNning yangi avlod standartlarini avvalgi ta'lim yondashuvlaridan ajratib turadigan muhim farqlovchi xususiyatdir. An'anaviy “bilim–ko'nikma–malaka” modeli asta-sekin o'z o'rnini shaxsiy rivojlanish, tafakkur va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan natijaviy ta'limga bo'shatmoqda.

Bugungi kunda asosiy e'tibor o'quvchini mustaqil fikrlaydigan, faol, ijtimoiy mas'uliyatli va hayotiy muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Shu bois maktab ta'limining mazmuni, metodlari va tashkil etish shakllari yangicha talqin etilmoqda. Pedagog-novatorlar, mualliflik maktablari, shuningdek hamkorlik pedagogikasi yondashuvlari chuqur o'rganilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Zamonaviy pedagog har bir darsni bola shaxsiyatini rivojlantirish, tarbiyaviy va kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan pedagogik vosita sifatida ko'radi va shu yo'nalishda o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib boradi [7].

Zamonaviy jamiyatda informatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot oqimining keskin ortib borayotgani ta'lim tizimi oldiga yangicha modellashirilgan o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini qo'ymoqda. Ayniqsa, bilimlar integratsiyasiga asoslangan ta'lim texnologiyalari bu borada dolzarb metodik yondashuv

sifatida e'tirof etilmoqda. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar dars davomida turli fanlar doirasida mustaqil ravishda olgan bilimlarini uzviy bog'lay olmaydi, ularni bir butun dunyoqarashga aylantirishda qiynaladi [9].

Bu holat o'quvchilarda inson tafakkurining asosiy intellektual komponentlari – taqqoslash, tahlil qilish, sintez va tasniflash kabi kognitiv faoliyat elementlarining yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, integratsiyalashgan ta'lim nafaqat bilimlarni ko'p fanlar bo'yicha uzviy bog'lashga, balki o'quvchilarning analitik fikrlash, mantiqiy umumlashtirish va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim [8].

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish va integratsiyalashgan ta'lim samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik vazifalar dolzarb hisoblanadi:

1. O'quvchilarning hodisalar va dalillarni tarixiy va tabiiy jarayonlar kontekstida o'zlashtirishiga yordam berish hamda ularni dunyoni yaxlit, uzviy manzarada tasavvur qila oladigan shaxs sifatida shakllantirish.

2. Maktab fanlari o'rtasidagi mavzu, mazmun va metodologik uzilishlarni bartaraf etish orqali bilimlarning fragmentarligini kamaytirish va o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash.

3. O'quvchilarda fanga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otish, uni turli kontekstlarda o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytirish.

4. Ta'lim jarayonini real hayot bilan bog'lash, bilimlarning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'quvchilarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish [11].

Zamonaviy maktab ta'limida fanlararo uzviylik va bilimlar integratsiyasi orqali o'quvchilarning puxta, tizimli va keng qamrovli dunyoqarashini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal etishda integrativ yondashuv asosiy metodik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Integratsiya ta'lim mazmunini sifatan yangi bosqichga olib chiqib, fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish, ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlash va mavjud didaktik kamchiliklarni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi. Fanlararo bog'liqliklar asosida shakllantirilgan yaxlit o'quv vaziyatlari integratsiyaning asosiy bog'lovchi bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi [6].

Integratsiyalashgan ta'limning pirovard maqsadi – o'quvchi ongida fanlarni bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona bilimlar tizimi sifatida qabul qilish imkonini beruvchi butunlikdagi dunyo manzarasini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur g'oya o'zining psixologik-pedagogik asosini klassik didaktikada ham topgan. Jumladan, K.D. Ushinskiy fanlararo bog'liqlikning didaktik ahamiyatiga chuqur baho berib, quyidagicha ta'kidlagan: “Qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar, ular yetkazadigan bilim va g'oyalar dunyo va uning hayoti haqidagi yorqin va iloji boricha keng qamrovli qarashga uzviy ravishda qurilishi lozim.”

O'qituvchini integratsiyalashgan darsga tayyorlash jarayoni bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. Bu jarayon birinchi navbatda o'quv dasturining mazmunini chuqur o'zlashtirish bilan boshlanadi, chunki darsda integratsiyalashayotgan fanlarning mazmuniy asoslari aniq tushunilishi lozim [4].

Keyingi muhim bosqich – turli fanlar mazmunida mavjud bo'lgan umumiylik va o'xshashliklarni aniqlashdan iborat bo'lib, bu o'zaro bog'liqlikni didaktik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, integratsiyaga jalb etiladigan fanlar sonini aniqlash (odatda 2–3 ta fan) hamda asosiy fan yoki teng ahamiyatga ega bo'lgan fanlar majmuasini belgilash zarur. Bu yondashuv o'quv jarayonining mazmuniy va metodik uyg'unligini ta'minlaydi, hamda darsning samaradorligini oshiradi [12].

Dars rejasini tuzish jarayonida o'qituvchi tomonidan darsning metodikasini oldindan chuqur va puxta rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Unda o'quv materiali mazmunining hajmi va chuqurligi, uni bayon etish ketma-ketligi, shuningdek dars davomida qo'llaniladigan texnik vositalar va resurslar oldindan aniqlab olinadi.

Ta'lim materialining tanlanishi esa fan mazmunining butun hajmini emas, balki aynan dars vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy tushuncha va faktlarni qamrab olishi lozim. Mazmunning lo'nda, aniqligi va dars maqsadiga yo'naltirilganligi o'quvchilarda bilimni samarali o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Integratsiyalashgan darslar zamonaviy pedagogikaning kompleks yondashuviga asoslangan bo'lib, ular muayyan didaktik talablarga javob berishi lozim. Bunday darslar, avvalo, o'quvchilarga keng qamrovli va tizimli bilimlarni shakllantirishga xizmat qilishi zarur [14].

Shuningdek, integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarda bilimga nisbatan ichki qiziqish va motivatsiyani shakllantirish, o'rganilayotgan materialga faol va ongli munosabatni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Bu orqali o'quvchilarning analitik fikrlash, solishtirish va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi intellektual faoliyat turlari faollashadi, natijada o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlari oshadi [11].

Integratsiyalashgan darslarning tuzilmasi qat'iy andozaga ega bo'lmay, u sinfning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning umumiy bilim darajasi, intellektual rivojlanish holati hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatiga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli, bunday darslar uchun bir xil, standart tuzilmani qo'llash maqsadga muvofiq emas [5].

Ta'limda integratsiya qo'llanilganda dars tuzilmasi moslashuvchan va o'zgaruvchan bo'lishi, pedagogik vazifa hamda fanlararo aloqaning tabiati bilan belgilanishi lozim. Taklif etilayotgan tuzilmalar asosan umumiy, tavsifiy xarakterga ega bo'lib, ularni konkret dars turi va mavzuga muvofiq holda moslashtirish talab etiladi.



Rasm 1. Integratsiyalashgan darslarning turlari.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda ayrim fanlar o'rtasidagi mazmuniy va metodik yaqinlik ularni o'zaro uyg'unlashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Quyidagi fanlar o'rtasidagi integratsiya samarali dars dizaynini ta'minlashi mumkin:

✓ Atrof-muhit – Tasviriy san'at: tabiat manzaralari, fasllar, hayvonot va o'simliklar dunyosini estetik ifodalash orqali ekologik ongini shakllantirish.

✓ Adabiy o'qish – Tasviriy san'at: badiiy matnlar asosida obrazlarni tasavvur qilish va ularni grafik ifodalash orqali estetik did va tafakkurni rivojlantirish.

✓ Musiqa – Tasviriy san'at: musiqiy asarlardagi kayfiyatni rang va shakl orqali ifodalash orqali emotsional-estetik integratsiyaga erishish.

✓ Musiqa san'ati – Adabiy o'qish: badiiy matnlardagi ritm va ohang elementlarini musiqiy ifoda bilan uyg'unlashtirish orqali hissiy dunyoni boyitish.

✓ Adabiy o'qish – Matematika: matnlardagi sonli ma'lumotlar, ketma-ketliklar va mantiqiy bog'liqliklarni matematik asosda tahlil qilish orqali analitik tafakkurni faollashtirish.

✓ Atrof-muhit – Matematika: ekologik jarayonlar, miqdoriy tahlillar va statistikalar asosida matematik fikrlashni shakllantirish.

✓ Adabiy o'qish – Atrof-muhit: matnlar orqali tabiatga, inson va muhit o'rtasidagi munosabatlarga axloqiy-estetik munosabatni shakllantirish [3].

Integratsiyalashgan yoki an'anaviy darslarni samarali tashkil etishda bir qator didaktik va metodik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, dars davomida ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar va texnik vositalardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish, o'quvchilarning mavzuni to'liq anglashiga va faol ishtirok etishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'limning faol shakl va usullarini qo'llash, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish, o'quvchilarning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda dars samaradorligini oshiradi. Fikrlash faoliyatini ongli tashkil etish, hamkorlik va ijodkorlik muhitini yaratish, darsda o'quvchi shaxsining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Har bir darsda aniq didaktik vazifalar bo'lishi lozim bo'lib, bu vazifalar darsning maqsadi va turiga bevosita bog'liq holda belgilanadi. Shu bilan birga, dars jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va o'z javoblari uchun mas'uliyatni his etishga yo'naltirilishi zarur. Ta'lim jarayonida dars nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan omil sifatida ham qaralishi lozim [13].

Integratsiyalashgan ta'lim jarayoni fanlararo yondashuvga asoslangan bo'lib, unda o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va tizimlashtirishga xizmat qiluvchi turli uslubiy yondashuvlar uyg'unlashtiriladi. Turli fanlar tutashgan nuqtalarda mos o'qitish va o'rganish metodlarining birgalikda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi.

Bunday darslarda ma'ruza, suhbat, tushuntirish, mustaqil ishlarni tashkil etish, kuzatish, tajriba o'tkazish, qiyosiy tahlil, hamda umumlashtirish kabi metodlar kompleks ravishda qo'llaniladi. Bu uslublarning integratsiyasi o'quvchilarda nafaqat bilim, balki analitik fikrlash, mantiqiy bog'liqliklarni anglash, hamda ijodiy yondashuv ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Darsga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'z rejalashtirayotgan darsini xuddi tashqi kuzatuvchi nuqtayi nazaridan tahlil qilishi muhim. Bunday yondashuv darsning mazmuni, metodikasi va tashkiliy tuzilmasini tanqidiy ko'z bilan baholash imkonini beradi [9].

Ushbu maqsadda tuziladigan tahliliy kuzatuv jadvali o'qituvchiga dars jarayonini puxta rejalashtirish, darsning kuchli tomonlarini aniqlash, shuningdek, ehtimoliy zaif jihatlarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish choralari belgilash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Integratsiyalashgan ta'lim zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida boshlang'ich ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etayotgani aniqlanmoqda. Fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda puxta, tizimli va keng qamrovli dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish, ekologik madaniyat va axloqiy-estetik qadriyatlarni anglash salohiyatini rivojlantiradi. Shu sababli, darslarni rejalashtirishda integratsiyaga asoslangan metodlar, mos fanlararo mazmun va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligiga e'tibor qaratish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aldashev, I. T., Otaxonov, N. A., & Raxmatov, O. (2021). Boshlang'ich talim jarayonini axborotlashtirish omillari. *Экономика и социум*, (2-1 (81)), 42-44.
2. Bocoş, M., & Chiş, V. (Eds.). (2013). *An Integrated Approach to Curricular Contents: Particular Features for Primary Schools*. Cambridge Scholars Publishing.
3. Haytbayeva, S. (2024). TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI. *Nordic_Press*, 1(0001).
4. Арипов, М. А., & Арипова, Н. М. (2017). Особенности интегрированного обучения в начальной малокомплектной школе. *Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки*, 11(2), 32-37.
5. Бахарева, Л. Н. (1991). Интеграция учебных занятий в начальной школе на краеведческой основе. *Начальная школа*, (8), 48-51.
6. Бахарева, Л. Н. (1991). Интеграция учебных занятий в начальной школе. *Начальная школа*, (8), 48-51.
7. Дик, Ю. И., Пинский, А. А., & Усанов, В. В. (1987). Интеграция учебных предметов. *Советская педагогика*, (9), 42-47.
8. Зверев, И. Д., & Максимова, В. Н. (1977). *Межпредметные связи в современной школе*. Москва: Педагогика.
9. Колягин, Ю. М. (1989). Об интеграции обучения и воспитания в начальной школе. *Начальная школа*, (3), 52-53.
10. Колягин, Ю. М. (1989). Об интеграции обучения и воспитания в начальной школе. *Начальная школа*, (3), 52-53.
11. Колягин, Ю. М., & Алексеенко, О. Л. (1990). Интеграция школьного обучения. *Начальная школа*, (9), 28.
12. Кузнецова, Н. Е., & Шаталов, М. А. (1998). *Проблемное обучение на основе межпредметной интеграции*. Санкт-Петербург: Образование.
13. Остонова, М. А. (2020). Особенности построения и проведения интегрированного урока в начальной школе. *Достижения науки и образования*, (2 (56)), 22-24.
14. Соколова, С. Г. (2017). Особенности организации интегрированных уроков в начальной школе. *Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. ИЯ Яковлева*, (3-1 (95)), 166-172.